



INFLUENCE OF EASTERN LITERATURE TRADITIONS ON THE DRAMAS OF TURGUT ÖZAKMAN

Zuhraxon Komilova

Mastrer degree student, Tashkent State University of Oriental Studies

(Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: This article talks about the creation of characters and images in the dramas “Behind the Wall” (“Duvarların Ötesi”) and “Family Hearth” (“Ocak”) by Turgut Ozakman, a well-known writer of modern Turkish drama, and the unique skills of the writer. Features of the character's image goes tools and creative style of creation, forms and principles of its reflection in the drama are studied. Ideological-artistic features of dramas, period and character of characters are analyzed in the creation of the artist's skill and style. In a certain sense, the character of the characters is one of the leading and important elements in reflecting the idea of the work. In this article, the author's imagination, ideas and goals, his goals are imposed on the character of his characters. The difference between image and character is expressed by evidence.

Key words: drama, character, artistic element, type, character, idea, artistry.

TURGUT O'ZAKMAN DRAMALARIGA SHARQ ADABIYOTI AN'ANALARINING TA'SIRI

Zuhraxon Komilova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

(Toshkent, O`zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy turk dramaturgiyasining taniqli yozuvchisi Turgut O`zakmanning “Devor ortida” (“Duvarların Ötesi”) va “Oila o`chog`i” (“Ocak”) nomli dramalarida xarakter va obrazlarning yaratilishi va yozuvchining o`ziga xos mahorati haqida so`z boradi. Xarakterning tasvir vositalari va yaratilishining ijodkor uslubiga xos xususiyatlari, uning dramada aks ettirish shakl va tamoyillari o`rganilgan. Dramalarning g`oyaviy-badiiy xususiyatlari, davri va qahramonlarning xarakteri yaratilishida badiiy san`at ijodkori mahorati va uslubi tahlil etilgan. Qahramonlar xarakteri ma`lum bir ma`noda asar g`oyasini aks ettirishda yetakchi va muhim ahamiyat kasb etadigan unsurlardan biri hisoblanadi. Badiiy so`z san`atkorining tasavvur olamini, fikr va g`oyalari, o`z oldiga qo`ygan maqsadlarini qahramonlari xarakteriga mohirona yuklanishi bu maqolada dalillar orqali to`xtalib o`tiladi va tahlil qilinadi. Obraz va xarakter o`rtasidagi farq isbotlar bilan ifodalaniladi.

Kalit so`zlar: drama, personaj, badiiy unsur, tip, xarakter, g`oya, badiiylik.

Аннотация: В данной статье рассказывается о создании персонажей и образов в драмах «За стенами» (“Duvarların Ötesi”) и «Семейный очаг» (“Ocak”) Тургута Озакмана, известного писателя современной турецкой драматургии, и уникального мастерство писателя идет. Изучаются особенности средств изображения персонажа и творческой манеры создания, формы и принципы его отражения в драматургии. Анализируются идейно-художественные особенности драм, эпоха и характеры персонажей в создании мастерства и стиля художника. В определенном смысле характер персонажей является одним из ведущих и важных элементов в отражении идеи произведения. В этой статье фантазия автора, идеи и цели, его задачи накладываются на характеры его героев. Разница между образом и характером выражается доказательствами.

Ключевые слова: драматургия, персонаж, художественный элемент, тип, характер, идея, художественность.

Kirish. Har bir millatning o'z suyukli adibi mavjud. Ularning asarlari necha yillar o'tsa-da, sevib o'qilmoqda. Ijodkor o'quvchiga qalbida kechayotgan jarayonlar, o'z orzu-istak va kechinmalarini asarlaridagi qahramonlar orqali yetkazishga harakat qiladi. O'quvchi badiiy asarni o'qir ekan, undagi personajlar holatini, orzu-xayollarini, g'am-qayg'ularini his qilib, tafakkur qila boshlaydi. Har safar o'qigan sari o'quvchi yangilik kashf qiladi. Taniqli o'zbek adabiyotshunosi T. Boboyev ilmiy qarashlarida xarakter xususida o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "Xarakter - ma'lum ijtimoiy faoliyat tipi. L.I. Timofeev aytganidek, xarakter - obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoyitda o'z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan insonning aniq tasviridir." [2, b.52]. Olimning qarashlaridan kelib chiqqan holda, ijodkor asarida g'oyaviy mazmunning hayotiyiligini ta'minlash uchun xarakterdan to'g'ri va unumli foydalanishi lozim.

Asosiy qism. Turgut O'zakman turk dramaturgiyasining muhim dramaturglaridan biri hisoblanadi. O'zining roman va dramalari bilan kitobxon ko'nglidan joy olgan adibning fikricha, dramatik san'atning maqsadi barcha tafsilotlari bilan aniq voqelikni yaratish bo'lmasligi kerak. Chunki "eng realistik asar ham voqelikning soyasidir. Haqiqatni aniq taqlid qilib bo'lmaydi, agar unga taqlid qilinsa, baribir san'at bo'lmaydi." [3, b.40]. Bu faqat iste'dod va xohish bilan amalga oshiriladigan ish emas. Darhaqiqat, drama san'ati haqidagi ma'lumotlarni oldindan va yaxshi o'rganish lozim. O'z romanini bema'lol belgilashi mumkinligini ta'kidlagan muallif, dramaturg ham shunday qila olmasligini, chunki rejissyorlar, aktyorlar va boshqa san'atkorlar bilan hamkorlikdan kelib chiqadigan ko'plab qoidalar dramaturgni bog'lashini aytib o'tadi.

Xarakterning mohiyatini ochib berishda badiiy til, konflikt jarayoni, dialog jarayoni va voqea-hodisalar syujetidan foydalangan holda yanada bosh qahramonning barcha xarakter qirralari ochib beriladi. Xarakter voqealar rivoji jarayonida, syujet davomida g'aydalanib boradi.

Natijalar va muhokama. Insonga xos xususiyatlarni jamlay olgan obrazgina xarakter bo'la oladi. Badiiy asarda har doim ham qahramonlar xarakter darajasiga ko'tarila olmaydi. U yozuvchidan mahorat va yoritilayotgan sharoit va zamonda qahramonning o'ziga xos o'rni va xususiyatini ochib bera olishi kerak. Turgut O'zakmaning "Oila o'chog'i" ("Ocak") nomli pyesasida yosh bo'lishiga qaramay, qiyin va mashaqqatli hayot yo'lini bosib o'tar ekan ruhan ezilishiqa qaramay o'zining insoniy xislatlari va ezgu fazilatlarini yo'qotmagan Fozil xakteri katta mahorat bilan yoritilgan. Bu asarda qashshoqlikdan aziyat chekkan oilaning parchalanishi va yana birlashishi, ular boshidan kechirgan istiroblari va umidsizliklari hikoya qilinadi. Aqldan ozgan buvi, xayolparast ota va uch aka-singlisini boqishga majbur qolgan Fozil haqida hikoya qilinadi. Fozil, uydagi yagona mas'uliyatli yigit, oilaning butun yuki uning yelkasida. Bolaligidan beri doimiy ravishda ishlaydi. U ham tengdoshlari kabi xursandchilik qilish, vaqtini o'zi xohlagandek o'tkazishni, ishdan ketishni xohlaydi. Lekin ishdan ketishga jur'at etolmaydi. Chunki u boshqa hayotga begona. Muallif Fozilni quyidagicha ta'riflaydi: *"ustida ishchi kombinzoni va charm kurtka. Mas'uliyat hissi tufayli ezilgan, jiddiy, kuchli va qo'rs."* (*"üstünde işçi tulumu, meşin ceket. Sorumluluk duygusu altında ezilmiş, ciddi, sert, haşin."*) [6, b.93] Otasidan farqli ravishda realistdir. Davomiy boyib ketish orzusida qo'lidagi bor mablag'ni tugatgan otasiga farzandlik burchini bajarib, yotiqlik bilan tushuntirishga harakat qiladi. Otasiga qarshi chiqsa ham doim yonida turadigan xarakterga ega.

Badiiy asardagi hayot – so'z vositasida yaratilar ekan, badiiy til – bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. "Jajji" (mikro) obraz – har qanday so'z kontekstda (boshqa so'z bilan aloqada) hayotiyiligini, o'zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko'rsata oladi. Yozuvchi so'zning grammatik, leksik, stilistik ma'no ko'rinishlaridan eng zarur va kerakligini kontekstga muvofiq ishlatadi, ya'ni tasvirlanayotgan hayot (epizod, obraz, xarakter)ning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so'zlarni tanlaydi. [4, b.39] Turgut O'zakman ham qahramon nutqi orqali xarakterning xususiyatini va hayotiyiligini namoyon qilishga intiladi. Shu uslubi yordamida ijodkor dramalaridagi qahramonlar nutqi xilma-xilligiga qarab

xarakterlanadi. Quyida qahramonning onasi bilan suhbatini ko'rib, uning ezilgan, qiynalgan holida ham oilasi va otasini o'ylayotgan obraz gavdalanganiga guvoh bo'lamiz:

Fozil: Qochib ketaman. Ortimga boqmay, qayerga bo'lsa ham.

Sofiya: O'zing bilasan, qoch.

Fozil: Men ketsam ustaxonada kim ishlaydi?

Sofiya: (xotirjam) Bilmasam.

Fozil: Men bo'lmasam dadamning qo'li ishga bormaydi.

(FAZIL: Kaçacağım. Ardıma bakmadan nereye olursa olsun.

SAFIYE: Sen bilirsin, kaç.

FAZIL: Ben gidersem kim çalışacak tamirhanede?

SAFIYE: (Sakin) Bilmem.

FAZIL: Ben olmadım mı babamın eli ayağı durur) [6, b.94].

Ijodkor tomonidan har bir xarakter, epizod va detal aniq tasvirlansa, asarning hamma qismlari bir-birini izchillik bilan to'ldirib, yagona g'oyani ochib berish uchun xizmat qilsa, badiiy yaxlitlik vujudga keladi. Mualliflar o'z qahramonlari portretini yaratishda ularga umumiy xususiyatlar bilan birga o'ziga xosliklar ham baxsh etadi. Bu esa yozuvchi zimmasiga qahramonlarlar nutqini yaratish vazifasini yuklaydi

Ijodkorning yana bir asari: "Devor ortida" ("Duvarların Ötesi") pyesasida shaxs-jamiyat munosabatlari ochib beriladi. Prokurorlarning va sudlarning ma'lum bir ma'noda chiqargan noto'g'ri hukmi natijasida o'lim va umrbod qamoqqa hukm qilingan va qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo'lgan mahbuslar va garovga olingan o'qituvchi qiz o'rtasida bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Ziyoli va jinoyatchilar o'rtasidai xarakterlararo konfliktning hayotiyiligini ta'minlab berish yozuvchining na qadar mahoratli ekanligini ko'rsatadi. Yozuvchi jamiyat jinoyatchi deb hisoblagan bu shaxslarni yaqindan tanishtirishga yordam berishni maqsad qilgan. Ilmli ayolning xarakterini ko'rsatish uchun bu obraz orqali garovga olinib, tutqunlikda bo'lsa ham shu o'qituvchi, o'z burchini "odamlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish" deb hisoblaydi va mahkumlarga ham to'g'ri yo'lga boshlay oldi. Adib

bu yerda ziyoli qiz obrazida konfliktli vaziyatda qat'iyati, insoniylik burchini ustalik bilan kitobxonga yetkaza olgan. Asta-sekinlik bilan tushunmovchilik yechim topa boshlaydi. 1-mahbus qizga: *“Bizni ushlab turgan narsa nafrat edi. Sen bizga shunaqangi muomalada bo‘ldingki, nafratanmay qo‘ydik!”* (*“Bizi ayakta tutan nefretti. Bize sen öyle iyi davrandın ki nefret etmez olduk!”*) [5, b.175] bu jumla ular boshlaridan kechirgan psixologik jarayonning ifodasidir. Bu qizning ma`rifati sabablidir. Birozgina ularni anglash, to`g`ri yo`l ko`rsatish, xuddi maktabdagi bolalarga nima xato-yu, nima to`g`riligini tushuntirib, ularga boshqacha yondashib, yaxshilikka, ma`rifatga boshladi. U shu zaytun omborini xuddiki maktabga, mahbuslarni esa o`z o`quvchilariga aylantirgandek go`yo. Shu o`qituvchi qiz jamiyat qila olmagan ishni qila oldi: ularni tinglay oldi, his qila oldi, haqiqiy pedagogligini shu yerda ko`rsata oldi. Hattoki mahbuslar uni xuddi o`zlarining singillari, opalari, onalaridek yaxshi ko`rishganliklarini ayttilar.

Badiiy asarda xarakterning qirralarini ochishda konflikt ham muhim ahamiyatga ega. Qahramon konfliktli onlarda o`zini tuta olishi, nizoli holatdan chiqqa olishi, qat'iyati bilan ajralib turadi. Ma`lumki, - konflikt, avvalo, estetikaning go`zallik problemi bilan mustahkam bog`liq. Hayotda go`zal narsa va hodisalar orasida doimiy ziddiyatlar bor. Xunuk voqealarning fosh qilinishi, qoralanishi go`zal voqealarni ulug`lash vositalaridan biridir. Ijtimoiy voqealarning go`zal sifatlari konflikt tufayli to`laroq namoyon bo`ladi. [1, b.208-209] Obrazning asl qiyofasini xarakterdagi qarama-qarshilik vujudga keltiradi. Adibning *“Oila o`chog`i”* (*“Ocak”*) dramasida oila a`zolarining ko`pchiligi tirikchilik uchun o`z hissasini qo`shmasligi va faqat bir insonga oilaning tirikchiligi yuklanishi, mas`uliyat va mas`uliyatsizlik, xayolparastlik va realistlik va boshqa jihatlarida buni ko`rishimiz mumkin.

“Devor ortida” asarida ham ziddiyatli holatni ko`rishimiz mumkin. Mahbuslar va qiz o`rtasida ozodlik va asirlik o`rtasidagi ziddiyat yuzaga keladi. Mahbuslar o`zlarining ozodligini ta`minlash uchun qizni asirga oladilar. U qizning erkinligini tortib oladi. Yosh qiz mahbuslarning ozodligini ta`minlash uchun o`zini asirga qoldiradi. Har ikki tomonning ozodligi va asirlik bir-biri bilan bog`liq. O`yin oxirida

mahbuslar taslim bo'lishga rozi bo'lishadi. Ular qizni o'zlari bilan olib ketishmaydi, chunki ular o'ldirilishini bilishadi.

O'zakman pyesa qahramonlarini uzoqni ko'ra olgan holda shakllantiradi. Uning maqsadi sahnada personajlarning psixologik teranligini aks ettirishga harakat qilish o'rniga ijtimoiy va individual darajada odamlar psixologiyasi darajasida yaratilgan qoliplashgan tasvirni ko'rsatishdan iborat. Bu yondashuv, konkret harakat tartibida mavhumlashish va stilizatsiyaga olib keladi. Bu yondashuv majoziy uslubda yozilgan bo'lsa-da an'anaviy dramaning tiplashtirish, komediya, harakat va mimikalar sahnaga singib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Komik holatlarni tanqidiy ruhda talqin qiladi.

Xulosa. Turgut O'zakmanning ikkala pyesasi o'rganishdavomida shunday xulosaga kelish mumkinki, qahramonlar xarakterini chuqur yoritib berishi, obrazlarining turfa xilligi bilan boshqa dramaturglardan ajralib turadi. O'zakman so'z orqali personajlarni tomoshabinga yaqinlashtiradi, dialog tuzilishi bo'sh suhbatlardan tozalangan xarakter tahliliga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tuzilishga egadir.

XX asrning birinchi yarmidagi davrni yoritishga harakat qilgan va yozuvchi o'sha davrdagi og'ir sharoit, nohaqlik va poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy turg'unlik (I va II jahon urishi) davrini ochib bera olgan. Turgut O'zakmanning asarlariga o'sha davrdagi ichki kurashlar va ziddiyatlar asos bo'lgan. Ijodkor dramalarida soddalik saqlanib, qahramonlarni o'sha davr tiliga mos, tushunarli tili orqali me'yorlarga amal qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. II томлик. I том. Т., Фан, 1978. -256 б.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari,-T. "O'zbekiston" 2002. –560 b.
3. Умуров Х. Бадий ижод асослари.- Т.: —Ўзбекистон| нашр., 2001. – 120 б.
4. Özakman. T. *Oyun ve Senaryo Yazma Tekniği*. 2014. Bilgi Yayınevi, 7. Basım, – 167 s.
5. Özakman T. *Duvarların Ötesi*, 2. Basın, – Ankara: Bilgi Yayınevi, 2014. –248 s.
6. Özakman T. *Ocak*, 1. Basın, – Ankara: Bilgi Yayınevi, 2008. – 308 s.

